

Ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashishni aniq mexanizmini yaratmas ekanmiz, bu sohada qancha boshqa islohotlar qilsak ham, oliyjanob Farmon va Qonunlar chiqarsak ham, sohani rivojlantirish uchun byudjetdan qancha-qancha mablag'lar ajratsak ham samara bermaydi.

Hozirgi kunda joylardagi korrupsiya holatlari haqida yozadigan bo'lsak juda ko'p yozish kerak bo'ladi, shu sababli bu haqida qisqagina to'xtalaman. Bu jirkanch holatlarni sizlar markazda turib ko'ra olmasliklariz mumkin, chunki sizlarga sohta ma'lumotlar boradi. Lekin bu jarayonni ichida ishlaydigan xodimlargina ko'ra oladi, ammo ko'p sabablarga ko'ra kurasha olmaydilar, andisha qilishadi yoki qo'rqishadi va natijada tizim ichkaridan yemirilib boraveradi.

Hozirda maktablarda kuzatuv kengashi degan, hech o'rni yo'q keraksiz ishlaymaydigan kengash bor. Taklifim xuddi shunga o'xshash kengashlarni SHXTB, TXTB miqyosida tashkil etilib, bu kengash a'zolari pedagog o'qituvchilardan tashkil etilsa. Bu kengash to'g'ridan-to'g'ri Vazirlikka bo'ysunib, hisobot berib, qonuniy vakolat, vazifa va majburiyatlari belgilab berilishi kerak. Kengash a'zolari biron bir maktabda bir stavka o'qituvchi bo'lib ishlashi va kengash a'zosi sifatida qo'shimcha maosh olishi kerak. Ularni tayinlash esa Vazirlik tomonidan suhbat asosida huquqiy bilimdonligi, adolatligi, keng fikrlay olishi va boshqa ko'rsatkichlariga asosan tayinlanishi kerak deb hisoblayman.

Bundan tashqari direktorlar ratatsiyasini yo'lga qo'yish kerak, yani ko'rsatkichi yuqori bo'lgan maktab direktorlarini ko'rsatkichi past bo'lgan maktablarga o'tkazish tartibini joriy qilish kerak. Bu holat yoki qoloq maktablarni ko'tarilishiga olib keladi, yoki sohta ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ba'zi korrupsiya alomatlarini ochib tashlaydi.

Shuningdek, o'qituvchilarni huquqiy bilimdonligini, qadr-qimmatini, tanqidiy fikrlash darajasini oshirish kerak. Bu gaplar ham o'z ichiga juda keng mavzuni qamrab olib hozircha ikki og'iz so'z bilan to'xtalib o'tmoqchiman. Joylarda o'qituvchilarning aksariyati oylik maoshlari nimalardan kelib chiqib aslida qancha bo'lishi kerakligini bilishmaydi va bilishga ham qiziqishmaydi. Chunki buxgalteriyaga borib maoshi haqida qiziqqan o'qituvchi XTB mudiri va direktorlardan olgulgini olib pushaymon bo'lgani qoladi xolos. O'z oyligini o'z haq huquqini talab qila olmaydigan o'qituvchi bolalarni qanday katta hayotga tayyorlay oladi. Davlatimiz ta'lim sohasini rivojlantirish uchun bu sohaga katta e'tibor berib moliyaviy jihatdan ham yil sayin katta mablag'lar ajratib kelmoqda. Bu oz mablag'lar emas. Lekin shu pullar haqiqatda egalariga tekkanda edi o'qituvchilarning kasbiga mas'uliyati ham ancha oshar edi. O'zi o'qituvchi qancha oylik oladi-yu va yana bir qismini noinsof rahbariyatga har xil yig'imlar ko'rinishida berishga majbur bo'ladi. Rag'batlantirish pullari haqida gapirma ham bo'ladi. Guyoki bu pullar direktorning shaxsiy pullari. Qo'pol qilib aytganda rahbarlar maktablarni xususiy mulklariga aylantirib olishgan. Shu sababli ko'p o'qituvchilar qo'shimcha tadbirkorlik qilishga majbur bo'lishyapti (Repitorlik, tomorqa, savdo, teplitsa, mol boqish va boshqalar) natijada o'z ustida ishlashga vaqt qolmaydi hamda o'quvchilarga va ishiga nisbatan fidoiyligi yo'qolmoqda.

Yurtimizda ta'lim tizimi bejizga eng korrupsiyalashgan sohalar qatoriga kirib qolmagan. Kelajagimiz tayanchi bo'lgan ta'lim sohasi uchun bu holatlar juda uyatliydir.

Yuqoridagilardan tashqari o'quvchi va asosan o'qituvchilarni ham halolligini, iymonini oshirishga e'tibor qaratish kerak deb hisoblayman. Yani o'quvchi va asosan o'qituvchilarga halol va harom, savob va gunoh, vatanparvarlik va shu kabi mavzulardan darslar quyish kerak. "Vatanni sevmoq iymondandir" deganlaridek, iymoni sust inson Vatanga sodiq bo'lmaydi hamda har xil nomaqbul yo'llarga kirib korrupsiyani avj olishiga ham sababchi bo'ladi.